
Aholini ro'yxatga olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi

Barchamizga ma'lum 2023-yilda mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish jarayonlari bo'lib o'tadi. Aholini va uy-joy fondini ro'yxatga olish maqsadida "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi 2020-uy 16-martdagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan. Aholini ro'yxatga olishning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

aholini ro'yxatga olish — O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o'tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni;

aholini ro'yxatga olish sanasi — aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va hisobga olish amalga oshiriladigan aniq payt (yil, oy, kun va soat);

respondentlar — aholini ro'yxatga olish sanasida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi, lekin aholini ro'yxatga olish sanasida uning hududidan tashqarida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

ro'yxatga olish varag'i — ko'rsatilgan savollar bo'yicha shaxsga doir ma'lumotlarni yozib olish uchun belgilangan shakldagi blanka;

ro'yxatga olish hujjatlari — aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoniga taalluqli hujjatlar majmui;

ro'yxatga oluvchi xodimlar — O'zbekiston Respublikasining aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rishga va uni o'tkazishga jalb etilgan, maxsus o'quvdan o'tgan voyaga yetgan fuqarolari;

uy xo'jaligi — bitta turar joyda yoki uning bir qismida birgalikda yashaydigan, o'zini yashash uchun barcha zarur narsalar bilan ta'minlaydigan, umumiy xo'jalik yuritadigan, pul mablag'larini to'liq yoki qisman birlashtiradigan va sarflaydigan shaxslar yig'indisi. Bu shaxslar qarindoshlik munosabatlarida bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Uy xo'jaligi bitta shaxsdan iborat bo'lishi mumkin.

O'ktamjon Teshaboyev,

Rishton tumani statistika bo'limi boshlig'i.

2022-03-10 14:57:16